

MUSTAQILLIKDAN SO'NG O'ZBEKISTONNING KOREYA BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI

Qo'chqorova Nigora Dilmurodjon qizi

Andijon Davlat Universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

nigoramakhmudov59@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11173121>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi barcha davlatlar bilan sheriklik aloqalari olib borgan. Jumladan: Koreya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, AQSh va shu kabi boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan. Bulardan biri Koreya bilan diplomatik aloqalari. Koreya va O'zbekiston aloqalari qadimdan mavjud bo'lgan, buyuk ipak yo'li orqali bog'langan aloqalar bugungi kunga kelib juda mustahkamlandi. Koreya va O'zbekiston o'rtasidagi masofa uzoq bo'lsada o'zaro manfaatli aloqalar orqali yaqinlik hosil bo'ldi. Mazkur davlatlar o'rtasidagi munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan bo'lib, bu yil aloqalar 30 yillik tarixga ega. Ushbu maqola davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni o'rnatilish tarixi, rivojlanish tendensiyalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy yoritilgan.

Kalit so'zlar: diplomatiya, shartnoma, aloqa, strategiya, iqtisodiyot, hamkorlik, millatlararo totuvlik.

Bugungi kunda Koreya Respublikasi O'zbekiston Respublikasi uchun muhim davlatlardan biri hisoblanadi. Davlatlarimiz o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992 yil yanvar oyida o'rnatilgan. 2006 yildan buyon davlatlarimiz o'rtasida hamkorlik Strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. Janubiy Koreya O'zbekiston tashqi savdosida yuqori ulushga ega bo'lgan 5 davlatdan biridir. Ushbu maqola davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni o'rnatilish tarixi, rivojlanish tendensiyalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy – gumanitar yo'nalishlarda hamkorlik masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, so'nggi to'rt yil davomida amalga oshirilgan Oliy darajadagi uchrashuvlar yakunlari, yangi yo'nalishlardagi hamkorlik natijalari hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi aloqalarga alohida urg'u beriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Tashqi siyosiy yo'nalishda mustaqil O'zbekiston tez sur'atlarda rivojlanayotgan dunyoning barcha davlatlari bilan, shu bilan birga Koreya Respublikasi bilan ham yaqindan hamkorlik qilishga urg'u bermoqda. Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib, ya'ni 1991 yilning oxirlarida tan olgan, diplomatik aloqalar 1992 yil 29 yanvarda o'rnatilgan. O'tgan 29 yillik davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan kelishuvlarga erishganlar. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2006 yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi. 2014 yilda esa Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat respublikalar o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar sohalarida munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratdi. Ikki mamlakatning siyosiy munosabatlari haqida so'z ketganda, avvalo, davlat rahbarlari o'rtasidagi samimiy do'stlikni ta'kidlash kerak. Bu do'stlik

Janubiy Koreya Prezidenti Li Myon Bak Seul meri bo'lgan yillari boshlangan. 2008 yilda Li Myon Bak prezident saylovda g'alaba qozonib, davlat rahbari lavozimini egallagach, inauguratsiya marosimiga oliy faxriy mehmon sifatida O'zbekiston rahbarini taklif etdi. 2009 yilning may oyida O'zbekiston va Janubiy Koreya rahbarlari Toshkentda uchrashdilar. Davlat rahbarlarining har bir uchrashuvi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab bordi. So'nggi to'rt yil davomida esa O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi boy va sarmazmun siyosiy muloqotga asoslangan holda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

2017 va 2019 yillarda amalga oshirilgan o'zaro davlat tashriflari natijasida imzolangan hukumatlararo bitimlar va tijorat shartnomalarining umumiy miqdori 22 milliard dollarni tashkil etdi. 2019 yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar "alohida strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2020 yil 30 oktyabr kuni Seul shahrida videoanjuman shaklida bo'lib o'tgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida o'z nutqi bilan ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari nutqida jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko'p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlarimiz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishini alohida ta'kidladi. Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyev xalqaro siyosatning eng muhim jihatlari va mintaqaviy hamkorlik istiqbollariga to'xtalib o'tdi. Muhim yo'nalishlarda, shu jumladan, Koreya kompaniyalari bilan birgalikda tashkil etilayotgan farmatsevtika klasteri negizida samarali vaksina va zardoblar, kasalliklarni tez va aniq tashxislash tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha birgalikdagi ishlarni davom ettirish taklifi bildirildi. Janubiy Koreya Farmatsevtika sohasida O'zbekiston bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Shu kunlarda O'zbekiston delegatsiyasi Koreya Respublikasida bo'lib turibdi. Tashrif doirasida o'zbekistonlik delegatlar Seul shahrida bo'lib o'tgan Farmatsevtika sohasi bo'yicha Koreya-O'zbekiston biznes forumida ishtirok etdi, shuningdek, qator rasmiy uchrashuvlar va muzokaralar o'tkazdi. O'zbekiston delegatsiyasi Investitsiyalar va tashqi savdo vaziri o'rinbosari Laziz Kudratov, Toshkent viloyati hokimi o'rinbosari Jamshid Abdusalamov, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi direktori Sardor Kariyev, Agentlikning bo'lim boshliqlari va yetakchi mutaxassislari hamda O'zbekistonda faoliyat yurituvchi 30 ga yaqin farmatsevtika kompaniyalari rahbarlaridan tashkil topgan.

Davlatimiz rahbari nutqida jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko'p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlarimiz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilishini alohida ta'kidladi. Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyev xalqaro siyosatning eng muhim jihatlari va mintaqaviy hamkorlik istiqbollariga to'xtalib o'tdi. Muhim yo'nalishlarda, shu jumladan, Koreya kompaniyalari bilan birgalikda tashkil etilayotgan farmatsevtika klasteri negizida samarali vaksina va zardoblar, kasalliklarni tez va aniq tashxislash tizimlarini ishlab chiqish bo'yicha birgalikdagi ishlarni davom ettirish taklifi bildirildi. Bundan tashqari, zamonaviy laboratoriyalar yaratish va chegaralardagi sanitariya nazorati punktlarini modernizatsiya qilish, yuqori malakali vrachlarni tayyorlash, tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tashkil etish, mintaqada epidemiologik vaziyatni monitoring qilish va barvaqt prognozlashtirishning integratsiyalashgan tizimini joriy etish

muhimligi qayd etildi. Tibbiyot sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi O'zbekiston va Janubiy Koreya "Bolalar milliy tibbiyot markazi"ni takomillashtirish, "Kattalar tibbiyot markazi" qurilishini tezlashtirish, Toshkent tibbiyot akademiyasi xodimlarini va talabalarini Janubiy Koreyaning tibbiyot klinikalariga taklif qilish orqali ularning malakasini oshirish, turli yo'nalishlardagi almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish singari dolzarb masalalarga e'tibor qaratdilar.

Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasini mamlakatimizga raqamli va "yashil" texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri deb bilishini alohida ta'kidladi. 2021 yil 28 yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan videoanjuman shaklida uchrashuv o'tkazdi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama munosabatlar borasida alohida strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va hamkorlikni har tomonlama kengaytirishni ta'kidladilar. Oliy, kasb-hunar va maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy meros ob'ektlarini raqamlashtirish va restavratsiya qilish sohalaridagi hamkorlikning joriy va istiqbolli dasturlari ko'rib chiqildi. Joriy yilda janubiy koreyalik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida jami 400 million dollargacha investitsiyalarni o'zlashtirilishi ma'lum qilindi. Bundan tashqari, ikki davlat hamkorligining yangi yo'nalishi sifatida yuqori texnologik sohalar, shu jumladan energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko'plab boshqa tarmoqlarda jami qiymati 3,4 milliard AQSh dollardan ziyod bo'lgan 55 ta yangi loyiha amalga oshiriladi. Bugungi kunga qadar ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 14 raund siyosiy maslahatlashuvlar bo'lib o'tdi (oxirgisi 2020 yil 5 noyabrda videoanjuman shaklida o'tkazilgan). 2018 yil 17 – 18 aprel kunlari Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Kan Gyon Xva O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. 2007 yil noyabr oyidan buyon "Koreya Respublikasi – Markaziy Osiyo" yillik hamkorlik forumi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2020 yil noyabr oyida Tashqi ishlar vaziri A. Kamilov Forumning 13-yig'ilishida ishtirok etdi. O'z navbatida rasmiy Seul ham BMT Bosh assambleyasi doirasida O'zbekistonning tashabbusi bilan 2018 yilda qabul qilingan ikkita, ya'ni "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" hamda "Ta'lim va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyani qo'llab-quvvatladi va unga hammualliflik qildi. Shuningdek, Janubiy Koreya 2021 – 2023-yillar davomida O'zbekistonning BMT inson huquqlari Kengashiga nomzodini qo'llab-quvvatladi. Hamkorlikning shartnomaviy – huquqiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, respublikalar o'rtasida 181 ta hujjat imzolangan bo'lib, ulardan 4 tasi davlatlararo, 53 tasi hukumatlararo, 75 tasi idoralararo va 49 tasi boshqa hujjatlar (xalqaro shartnoma maqomiga yega bo'lmagan xalqaro hujjatlar). Xususan ta'limda ham ko'plab kelishuvlarga erishildi. Andijon Davlat Universiteti ham ta'lim sohasida hamkorlik ishlarini olib bordi. 2019-yilning 18-sentabr kuni Andijon davlat universitetiga Janubiy Koreyaning Tongmyong universiteti vakillari: universitet xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i janob Kweon Joong-Rak hamda universitet qoshidagi Koreys tillar instituti Xalqaro munosabatlar bo'limi guruh rahbari janob Eun Hee Park Andijon davlat universiteti bilan avval o'rnatilgan hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida tashrif buyurdilar. Mehmonlarni ADU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Baxtiyor Rasulov hamda xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Farhod Alimovlar kutib oldilar. Dastlab Tongmyong universiteti vakillari Andijon

davlat universitetida talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, mavjud fakultetlar va ta'lim yo'nalishlari bilan tanishtirdilar. Shundan so'ng, ikki tomonlama hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Janob Kweon Joon Rak Tongmyong universiteti, Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimiga bag'ishlangan taqdimot o'tkazdi. Muhokamalarda ikki oliy ta'lim muassasasi hamkorligida Informatika va axborot texnologiyalari hamda Arxitektura va dizayn yo'nalishlari bo'yicha "double degree" (2+2) asosida qo'shma ta'lim dasturi tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi. Universitetimiz ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Baxtiyor Rasulov ushbu sohalarida kadrlar tayyorlashda katta tajribaga ega bo'lgan Tongmyong universiteti bilan hamkorlik qilish Andijon davlat universiteti uchun manfaatli ekanini bildirib o'tdi. Ushbu qo'shma dasturni amalga oshirish uchun hamkorlikda noyabr oyiga qadar "yo'l xaritasi" ishlab chiqishga kelishib olindi. Shuningdek, uchrashuvda talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik almashinuvini yo'lga qo'yish, bu borada qisqa muddatli uch oylik va olti oylik muddatlarda akademik almashinuvni tashkil etish ikki tomon uchun manfaatli ekanini bildirildi. Shuningdek, o'qituvchilarni Janubiy Koreyaga stajirovka, malaka oshirish va doktoranturaga yuborish, Tongmyong universitetining yangi avlod o'quv dasturlarini milliy o'quv dasturlarimizga moslashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Yakunda ikki tomon vakillari yangilangan hamkorlik memorandumi imzolashga kelishib oldilar. Tongmyong universiteti Janubiy Koreyaning axborot texnologiyalari sohasida yetakchi oliy ta'lim muassasalari biri bo'lib, 1977 yilda Kang Seok-jin tomonidan Tongmyong madaniyat va ta'lim instituti sifatida tashkil etilgan. Hozirda universitet tarkibida 5 ta kollej, 1 ta institut, 2 ta maktab mavjud. Universitet axborot texnologiyalari, muhandislik, arxitektura va dizayn sohalarida zamonaviy bilimlarga ega, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda katta tajribaga ega. Biz yoshlar uchun bu imkoniyatlar juda katta yutuqlarga ega bo'lishimizga yordam berdi.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo-tinch okeani mintaqasi davlatlari savdo hamkorlari orasida yetakchi o'rinlarni egallaydi. Xususan,

1992 yilda imzolangan savdo bitimiga muvofiq mamlakatlar o'rtasida eng qulay afzalliklar rejimi o'rnatilgan. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar yildan yilga o'sib borishi tomonlar o'rtasidagi munosabatlar mustahkam "poydevor"ga egaligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2020 yil yakuni bo'yicha ikki davlat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 2 142,3 million AQSh dollarni tashkil qildi. Shundan eksport – 45,5 million AQSh dollarni, import esa – 1 872,7 million AQSh dollarni tashkil qildi. O'zbekistonning Janubiy Koreyaga eksport qiladigan asosiy mahsulotlari transport, qurilish, turizm xizmatlari (33,5%), yog'och va yog'och mahsulotlari (20,6%), to'qimachilik mahsulotlari (13,4%), kimyoviy mahsulotlar (10,3%), elektr uskunalari va uning qismlari (6,2%), oziq-ovqat mahsulotlari (4,3%), qurilish materiallari (4,1%), yog'li urug'lar, mevalar (2,6%) va boshqalar. Koreyadan keltiriladigan import mahsulotlarining asosiy qismini transport vositalari va ularning ehtiyot qismlari (41,1%), turli xil mexanik va elektr uskunalari (23,1%), plastmassa va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (5,5%), qurilish materiallari (5,3%), qora metall va undan tayyorlangan mahsulotlar (4,1%), optik uskunalari va apparatlar (3,2%), kimyoviy mahsulotlar (2,4%), kauchuk va rezina mahsulotlari (2,3%) va boshqalar. Tomonlar investitsion hamkorlik bo'yicha ham ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Xususan, 1992-2020 yillar mobaynida Koreyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalari hajmi 7 milliard AQSh dollardan ortiq. Koreya investitsiyasi

ishtirokidagi korxonalar soni esa 875 tani tashkil qilib, ulardan 539 tasi – 100% Koreya kapitali ishtirokida shakllantirilgan. Ushbu korxonalarning faoliyati asosan savdo, yengil sanoat, tog'-kon, kimyo, oziq – ovqat sanoatlariga, mashinasozlik va metalga ishlov berish, uy-joy-kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, turizm va xizmatlar sohalariga ixtisoslashgan. O'zbekistonga investitsiya kiritgan eng yirik kompaniyalar "Koreya milliy neft korporatsiyasi" (KNOC), "Koreya gaz korporatsiyasi" (KoGas), "Daewoo International", "Korean Air", "Shindong Enercom", "Haintex" va "LG" hisoblanadi. Shu jumladan, "Koreya gaz korporatsiyasi" (KoGas) "O'zbekneftgaz" AJ bilan hamkorlikda O'zbekiston shimoli-g'arbidagi Ustyurt yassi tog'ligida qiymati 4 milliard AQSh dollar bo'lgan gaz-kimyo majmuasini 2016 yilda qurib bitirdi. "Koreya milliy neft korporatsiyasi" esa Farg'ona vodiysida yangi neft konlarini qidirib topish loyihalarini amalga oshirish ustida ish olib bormoqda. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan 74 ta Koreya kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan. Andijon viloyati ham Koreya bilan ta'lim sohasida balkim savdoda ham aloqalar o'rnatilgan. 2024-yilning yanvar oyida Andijon viloyatining Janubiy Koreya Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi 79,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 0,02 mln. AQSH dollarini, import hajmi esa 79,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

References:

1. Xurshidbek Samiyev. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlik natijalari. [https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi hamkorlik natijalari](https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorlik-natijalari).
2. Obid Hakimov "The Korea Post" jurnali. O'zbekiston Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. <https://review.uz/post/uzbekistan-koreva-perspektiv-ekonomicheskogo-sotrudnichestva>
3. Sanjar Said. O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari: tenglik, do'stlik, hamjihatlik, <https://kun.uz/uz/news/2015/11/06/ozbekiston-janubiy-koreya-munosabatlari-tenglik-dostlik-hamjihatlik>
4. Musaev B. Mehnat huquqi: uni himoya qilish borasida. O'zbekiston va Koreya Respublikasi hamkorligi.-Toshkent: 2017.-B. 76.
5. O'zbekiston Janubiy Koreya: strategik sheriklikning yangi bosqichi. 2017-yil 24-noyabr.
6. ADU.uz
7. Xalq so'zi gazetasi. 1996-yil 15-fevral.
8. Xalq so'zi gazetasi. 2005-yil 10-may